

MICROSOFT OFFICE

Ibragimova Gulnoza

Namangan viloyati Uchqo'rg'on tuman

34- DIUM "Informatika" fani o'qituvchisi

Shahnoza Xamdamova Abdulxamidovna

Namangan viloyati Uchqo'rg'on tuman 1-sonli maktab informatika fani o'qituvchisi

Sharipova Xurshida Ikramovna

Namangan viloyati Uchqo'rg'on tuman 1-sonli umumiy o'rta ta'lif maktabi

Informatika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada, offis dasturlar paketi haqida ma'lumot, tarkibi va hozirgacha yaratib kelingan versiyalari haqida qisqa ma'lumotlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: Microsoft korporatsiyasi, Microsoft windows, Microsoft office, C, C++, word, excel, outlook, powerpoint, access, onedrive, onenote.

Annotation: *In this article, information about the package of office programs, its content and brief information about the versions created so far are covered.*

Keywords: Microsoft corporation, Microsoft windows, Microsoft office, C, C++, word, excel, outlook, powerpoint, access, onedrive, onenote.

Аннотация: В данной статье освещаются сведения о пакете офисных программ, его содержании и краткая информация о созданных на данный момент версиях.

Ключевые слова: корпорация Microsoft, Microsoft windows, Microsoft office, C, C++, word, excel, outlook, powerpoint, доступ, onedrive, onenote.

Biz bilamizki, offis dasturlar paketi "Microsoft" korporatsiyasi orqali yaratilgan, va hozirda zamонавиҳ hayotda eng keng qo'llaniluvchi texnologik omil hisoblanadi. Uning dasturlash tili barchamizga ma'lum va mashhur bo'lган C oilasiga tegishli bo'lган til – C++ dasturlash tilidir.

Microsoft Office — Microsoft korporatsiyasi tomonidan Microsoft Windows, Windows Phone, Android, Mac OS, iOS operatsion tizimlari uchun yaratilgan idora dasturlari to'plamidir. Ushbu to'plam tarkibiga turli xildagi hujjatlar: **matn**, **jadval**, **ma'lumotlar ombori** va boshqalar bilan ishlash imkonini beruvchi dasturiy ta'minotlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek VBA tilida yozilgan skriptlar va makroslarni qo'llay oladi.

Microsoft office haqida. Microsoft Office dasturlaridan foydalanuvchi har bir masalani yechishda, hujjatlarni taxrirlashda va boshqa ishlarda unimli foydalanishi mumkin. Officedan foydalangan foydalanuvchi ekranni o'z xohishi bo'yicha o'zgartirishi, shriftlarni tanlashi, printerlarni tanlashi, boshqa tizimlarni disklarga yozishi, qo'shimcha kompyuter qurilmalarini o'rnatishi va hakozo imkoniyatlardan foydalanishi mumkin. Qisqa qilib aytganda, kompyuter ishini o'z xohishiga moslab kompyuter xotirasi, ekranni, ishlash

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH

VOLUME-2, ISSUE-13 (26-December)

tezligi, qo'shimcha qurilmalaridan optimal foydalanishi mumkin. Mashxur Microsoft korporatsiyasi shaxsiy kompyuterlardan foydalanuvchilar uchun ko'pgina dasturlar va operatsion tizimlarni ishlab chiqarishni jadal rivojlantirmoqdalar. Jumladan, foydalanuvchilarning kompyuterdan foydalanish imkoniyatlarini oshirish uchun OFFICE dasturlar to'plamini ham ishlab chiqarishgan. Ko'pgina foydalanuvchilar Windows operatsion tizimi bilan OFFICE dasturlar to'plamini chalkashtirishadi. To'g'ri, bu ikkala dasturlarni ham Microsoft korporatsiyasi ishlab chiqqan va asosan shaxsiy IBM va Pentium kompyuterlariga o'rnatishga mo'ljallangan. Windows operatsion tizimi OFFICE dasturlarisiz bemalol ishlay oladi, lekin OFFICE dasturlari Windows dasturisiz ishlamaydi. Windows dasturlarining quyidagi versiyalari mavjud: Windows-3.X, Windows-95, Windows-98, Windows-2000, Windows-2002, Windows NT, Windows XP va hokazo. Office dasturlar to'plamini esa quyidagi versiyalari mavjud: Office-95, Office-96, Office-97, Office-2000, Office-2002 va Office XP. Office-2003 dasturlar to'plamini shaxsiy kompyuterga o'rnatish uchun kompyuterda Windows operatsion tizimi o'rnatilgan bo'lishi, so'ng kompyuter operativ xotirasi kamida 8-16 Mb bo'lishi va qattiq diskda kamida 250 Mbdan 700 Mbgacha (Officedan foydalanish imkoniyatiga qarab) bo'sh joy bo'lishi lozim.

Office tarkibi. Microsoft Office bir nechta xilda sotuvga chiqariladi. Ularning farqi to'plam tarkibi va narxida. Office dasturlar to'plamining nisbatan to'liqroq variantiga quyidagi dasturlar kiradi:

- Microsoft Word — har xil ko'rinishdagi oddiy va murakkab matnlarni taxrirlashga mo'ljallangan matn muharriri.
- Muqobil dasturlar: OpenOffice.org Writer, LibreOffice Writer, StarOffice Writer, KWord, NeoOffice Writer, Corel WordPerfect, Apple Pages (bu faqat Mac OS tizimida) va AbiWord.
 - Microsoft Excel — har ko'rinishdagi hisob—kitobli ma'lumotlar bilan ishlashga mo'ljallangan elektron jadvalli dastur.
 - Muqobil dasturlar: OpenOffice.org Calc, LibreOffice Calc, KSpread, StarOffice, Gnumeric, Corel Quattro Pro va Apple Numbers (bu faqat Mac OS tizimida).
 - Microsoft PowerPoint — ma'lumotlarni taqdimot, reklama qilishga mo'ljallangan taqdimot dasturi.
 - Muqobil dasturlar: OpenOffice.org Impress, LibreOffice Impress, KPresenter, Corel WordPerfect va Apple Keynote.
 - Microsoft Access — ma'lumotlar ombori (bazasi) bilan ishlashga mo'ljallangan dastur.
 - O'rnini bosuvchi dasturlar: OpenOffice.org Base, LibreOffice Base, Kexi.
 - Microsoft Publisher — har xil ko'rinishdagi noshirlik ishlarini bajarishga mo'ljallangan muharrir dastur.
 - Microsoft Outlook (Outlook Express bilan chalkashtirmang) — elektron pachtadan foydalanishga mo'ljallangan dastur va hokazo Uning tarkibiga taqvim, ish rejalashtirgich, qaydnama, manzillar kitobi va shaxsiy pochta kiradi.

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH

VOLUME-2, ISSUE-13 (26-December)

- Pochta xizmati uchun — Mozilla Thunderbird/SeaMonkey, Novell Evolution, Claws Mail, Eudora Mail, The Bat!; shaxsiy ma'lumotlar dispetchiri — Mozilla, Lotus Organizer и Novell Evolution.
- Microsoft InfoPath — ma'lumot yig'ish va uni boshqarish dasturi.
- Microsoft Communicator (Microsoft Lync) — insonlar bilan har tomonlama muloqot qilishni tashkilashtiradigan dastur.
- Microsoft Visio — biznes va texnik diagrammalar bilan ishlovchi dastur.
- Muqobil dasturlar: LibreOffice Draw, OpenOffice.org Draw, yEd Graph Editor.
- Microsoft Project — loyihibar bilan ishlovchi dastur.
- Microsoft Query — ma'lumotlar omboridan ma'lumot oluvchi va ko'rib chiquvchi dastur.
- Microsoft OneNote — qaydnomalar yozish uchun mo'ljallangan dastur.
- Microsoft Groove — birgalikdagi ishni qo'llab quvvatlovchi dastur.
- Microsoft SharePoint Designer — Microsoft SharePoint tizimida dastur yaratish uchun vosita.
- Microsoft Picture Manager — rasmlar bilan ishslash.
- Muqobil dastur: OpenOffice.org Draw.
- Microsoft Document Image Writer — virtual printer.
- Microsoft Diagnostics — Microsoft Officening zararlangan dasturlarini diagnostika qiluvchi va tuzatuvchi dastur.

Office dasturlar to'plamini o'rnatishda yuqorida ko'rsatilgan dasturlarni tanlash orqali, ya'ni keraklisini o'rnatish orqali kompyuter qattiq diskidagi joyni tejash mumkin.

Xulosa.

Matnlarni yaratish va tahrirlash, elektron hujjatlarni chop etish, shuningdek taqdimotlarni ko'rish va yaratish uchun ushbu sohada shubhasiz etakchi - Microsoft Office mavjud. Va bu o'n yildan ortiq vaqt davomida reyting o'rinalarini egallab kelgan sayyoradagi eng mashhur dasturlardan biridir.

Dasturiy mahsulotning butun dunyo bo'ylab shuhrati uning muvaffaqiyatidan dalolat beradi, chunki kompyuter foydalanuvchilarining katta qismi uni afzal ko'radi. Dasturiy ta'minot to'plamining muntazam yangilanishi (qo'shimchalar xizmat paketlari ko'rinishida chiqariladi) ularni doimiy ravishda takomillashtirishni ta'minlaydi, ularni yangi funksional xususiyatlar bilan to'ldiradi. Barcha o'zgarishlar foydalanuvchilarning so'rovlarini bo'yicha, ularning xohish-istaklarini inobatga olgan holda va ilgari aniqlangan kamchiliklarni to'g'irlagan holda amalga oshiriladi.

Microsoft Office	5-oktabr, 2021-yil (14 oy avval)
Chapdan: Microsoft Outlook, Microsoft OneDrive, Word, Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint, Microsoft OneNote, Microsoft SharePoint, Microsoft Teams va Yammer.	Operatsion sistema Microsoft Windows Mac OS iOS Android Windows Phone
Muallif Microsoft Corporation	Til(lar) Interfeysi 102 ta tilga o‘girilgan
Ishlab chiqaruvchi Microsoft	Status amalda faol
Chiqish sanasi 19-noyabr, 1990-yil (32 yil avval)	Janr idora dasturlari to‘plami
Eng so‘nggi versiyasi Microsoft Office LTSC Professional Plus 2021 Preview /	Litsenziya EULA
	Dasturlash tili: C++

FOYDALANILGAN MANBAALAR VA ADABIYOTLAR:

1. **Tony Antoun, Igor Zaika:** “How Microsoft Uses C++ to Deliver Office (and More) Across iOS, Android, Windows, and Mac”
2. <https://cppcon.org/bonus-talk-cxx-in-ms-office-2014/>
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Microsoft_Office
4. <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/informatika-va-at/microsoft-office-dasturlar-paketi-va-uning-imkoniyatlari>